



O`ZBEK ADABIYOTIDA OBRAZLARNING BOYITILIISHI RAMZIY MA’NOLARDA

Muxlisa Sadriddinovna Muxitdinova

Manzuraxon Xojiakbar qizi Tursunova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. O`zbek adabiyotida obrazlarning boyitiliishi ramziy ma’nolarda turli detallardan ustalik bilan foydalанишдан namoyon bo`ladi. Asarga detallarni to`g`ri tanlash va o`z o`rnida qo`llash adiblardan yuksak hissiy jo`sinqin qalb qo`rini talab etadi. Ushbu maqola anor timsoliga bag’ishlangan bo’lib, uning Muqimiy ijodida namoyon bo’lishi, so’ng Abdulla Qaxxor tomonidan sayqallanib, eng yuksak pog’onaga ko’tarilishi, an’ana va izdoshlik asosida shakllangan ushbu janr adabiyotimizda muhim ahamiyatga ega bo’lganligi haqida so’z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *timsol , pok,misra, axgar, manqal, tashbeh*

Anor milliy adabiyotimizda ko’p tasvirlanadigan o’zining ramziy ma’nosiga ega meva sanaladi. Anor-oila, serfarzandlilik ramzi. Masalan Navoiyning “Anor” chistoni orqali kuzatishimiz mumkin.

Ne mijmardir to ’la axgar, vale ul mijmar andomi

Erur sun ’ilgidan gohe muqaddas, goh musamman ham

Chiqar ravzandin axgar dudiyu bu turfakim oning

O’tig’ a dud yo ’qtur mijmarig ’a balki ravzan ham

O’tu mujmar dema bor ul sadafkim, durlarin oning

Evurdi qong ’a davroni musha ’bid charxi purfan ham



Dastlab, asar anorning ichki va tashqi tuzilish tasviridan boshlanadi. Asar boshlanishida Navoiy anorni ichida cho'g' yonib turgan idishga qiyoslaydi . Ya'ni anorning tashqi ko'rinishini xushbo'y narsalar solib tutatiladigan idish(manqal)ga , ichidagi donalarni yonib turgan cho'g'ga o'xshatadi. Bunda ham tashbeh badiiy vositasidan mahorat bilan foydalanilgan. Lekin keyingi misralarda esa ushbu o'xshatishdan voz kechishga majbur bo'ladi. Ya'ni shoir

Chiqar ravzandin axgar dudiyu bu turfakim oning

O'tig'a dud yo'qtur mijmarg'a balki ravzan ham

Shoir bu baytda anorni manqal desak, manqalning tutun chiqadigan joyi bo'lishi kerak. Anorda esa tuynuk ham, tutun ham yo'qdir. Shundan keyin shoir anorni sadafga o1xshatadi. Uning donalarini esa dur-u gavhar deb ataydi. Bu o'xshatish ham tashbeh san'atining beqiyos ko'rinishlaridan biridir. Olingen tashbehlar majoziy bo'lib, sadaf o'z zamonidagi tuzumga, sadaf ichidagi gavharlar esa qonga qiyoslanadi. Shu manzara orqali zamon tuzumidan azob chekayotgan davr ahli , begunoh to'kilgan qonlar gavdalantiriladi. So'nggi baytlarda esa anor iste'mliga doir, uning tibbiy foydasi haqidagi mulohazalarini keltiradi. Uvaysiyning chistonlarida ham anor mevasiga e'tibor qaratiladi. Shoira anor chistonida xuddi Navoiydek anorning tarifini san'atkorona tasvirlab beradi.

Ul na gumbazdir eshigi , tuynugidan yo'q nishon

Necha gulgun, pok qizlar manzil aylabdur makon

Sindurub gumbani qizlar holidin olsam xabar

Yuzlarig'a parda tortig'liq, tururlar bag'ri qon

Anor ichidagi donalari va ularning jipslashib turishi muastahkam oila va farzandlar inoqligining ramzi bo'lib keladi. Ana shunday koplab qalam ustalaridan



bo`lgan Muhammad Aminxo`ja Muqimiy va Abdulla Qahhor buning uddasidan chiqdilar va asarlariga ramziy ifoda aks ettirib, “ANOR” deb nomladilar. Muqimiy 1850-1903-yillarda Qo`qonda yashab ijod qilgan shoir, o`zbek demokratik adabiyoti asoschilaridan biri¹. Otasining vafotidan so`ng onasi Oyshabibi uni elparvar etib tarbiyaladi. Sh’erlarida real muhabbatni aks ettirgan Muqimiy insonning ichki kechinmalari, hissiyotlarini, turmush tarzi-yu beshavqat hayotda yashashning kurashdan iboratligini, qashshoqlarning mudhish savdolarini alam, istak, armon, orzu bilan maftunkor g`azallarga bitdi.

Abdulla Qahhor 1907-1968-yillarda Qo`qonda yashab ijod qilgan deyarli barcha tur va janrlarda qalam tebratgan mohir tarjimon². Otasining kasbi temirchilik bo`lib, tushgan daromaddan cho`ntakka kemir bo`lmay, ish izlab qishloqma-qishloq bolalik onlari nochorlik va qashshoqlikda kechadi. Qahhor hikoyalarining har birida davrning ijtimoiy muammolari goh kuchli dramatizm zaminiga goh achchiq satira ostida yoritiladi va buning yechimi sirliligicha qoldirilib, kitobxonning o`ziga havola etiladi³.

U tugunni uyning o’rtasiga tashladi. Bir choyshab anor har tomonga yumalab ketdi, bir nechasi obrezga tushdi.

Bu ikki adib bir-birini ko`rmagan bo`lsalarda, ijod yo`llari ma’lum qismlarida kesishadi. Ikkala adib ham nochorlik va qashshoqlik yashaganlar va shu tufayli, asarlarining o`xshashliklari o`z orzularini osha davrda duch kelingan xalqning nochorliklarini turli obrazlarda nomoyon qildirishga muvaffaq boladilar va kitobxonni chuqur o`yga toldirarlik asar yaratdilar.



Ne'mat ichra xush latofatlikda mustasno anor,

“Qoy” agar hikmatda derlar qotii safro anor.

Me'dani pokiza aylab, ishtahoni keltirub,

Ko`p g`izo qilg`armi qilg`ay rangini humor anor.

Muqimiy ushbu misralarni yaratib, anorning qanchalik inson uchun foydali ekanligini, uning hususiyati, davosi haqida kitobxonga toza ma'lumot berayotgandek tasvirlaydi, ammo uning tub ma'nosida real muhabbatning timsoli bo`lgan “ANOR”ga urg`u berib, insonning ichki kechinmalari, hissiyotlariga boy so`zlarda ifodalaydi. Keyingi misralarida qashshoqlikda yashashning qiyinchiliklaridan anorning bir donini yejish uchun chontagida kemiri bo`lmagan, tashnalikda, ochlikda bo`lsa ham dumalagan anorni achchig`idan yejish xarom bo`lishini aytib urg`u beradilar.

Bor masalkim: yaxshi odam der edim, o`zi bilur,

Yo`qsa aylardim qachon sizlarga men da'vo anor.

Xaltasi birlan yuboring gohi-gohi lutf etib,

Bo`yla kelganda Namangan shahridin savg`o anor.

G`azalning ohirgi misralarida o`sha davring taqdir hukmiga bo`ysunishga majbur qilgan o`sha nochorlikning quda-andachilikdagi holati tas`virlangan. Misralarga quyidagicha ta`rif berish mumkin: kambag`alchilik har bir kishining boshiga tushganda, yurt tursin o`z qardoshing ham sanga past nazarda qaraydi. Gul istab borgan eshiklar o`z-o`zidan qarsilattib ortidan yopiladi-yu yelkang qisilib qaytasan kishi. Misralarda shunday mahorat bilan yozilganligi boisidan aynan shu holat zaharhandalik, insonni o`yga tolarlik etib ifoda qilingan.



Abdulla Qahhorning "Anor" nomli hikoyasida esa jamiyat keltirib chiqargan, ijtimoiy qashshoqlik va uning oqibatlari haqida yozadi. Bu hikoya bir necha qahhorshunos olimlar tomonidan turlicha tahlil qilingan va hamon davralarda qizg`in bahs, munozaralarga sabab bo`lmoqda. Asarda Turobjon va xotinining baxtsizligining sababi jamiyatdagи ijtimoiy tengsizlikdir. A.Qahhor hikoyani zamon talablaridan kelib chiqib insonlarni ijtimoiy hayotini, jamiyatning nochor qatlamini kichik oilaning timsolida tahlilini ravshan qilib ko`rsatadi. Asar bosh qahramoni Turobjon nochorlik,kambag`alchilik tufayli ayoи yani turmush o`rtog`ining boshqorong'u paytida yegisi kelgan anorni olib kelib berolmagani va xotini g`ururiga tegib gapirishi oqibatida ,hatto o`g`irlikka borish holati tasvirlanadi. Hech zamonda anor mevasi qimmat sotilmagan, ammo epizod uchun eng to`g`ri tanlangan rekvizit ham anor bo`ladi. Negaki o`sha zamonda ba'zi insonlar non olib yeyishga ham qurbi yetmagan, vaholanki non o`sha davrda ham hozirgi paytda ham qimmat yegulik emas. Nochorlik sababli Turobjon va xotini o`rtasida darz ketgan munosabatlar go`yoki,yerda sochilib ketgan anor donalariday chil-chil sinib bo`lgandi. Ikki chashmaning birlashib irmoq bo`lganiday, ikki adibning ijodlari hayotdagи qiyinchilik sabablari ham bora-bora aynan shu "NOCHORLIK" degan nuqtaga kelib tutashdi. Ikki adibning o`xshash jihatlari ham ana shunda. Ularni faqatgina vaqt ajratgan xolos. Anor nafaqat milliy adabiyotimizda balki xalq hunarmandchiligidan ham ko`p tasvirlanadigan o`zining ramziy ma`nosiga ega meva sanaladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abdurasulov M. O`zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm-ma'rifat haqida. T.: "O'qituvchi". 1972.
2. Jo'rayev H. Lirikada an'anaviylik va o'ziga xoslik. T.: 2004.
3. Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. 1976.



4. Muqimiy. Bog' aro. T.: Akademnashr. 2010.
 - 5.Q. Pardayev. Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili
 6. Арипжанова Л. Х., Мухитдинова М. С. Образовательные возможности новых информационных технологий в обучении иностранным языкам в вузе // Бюллетень науки и практики. 2019. Т. 5. №4. С. 448-451.
 7. M.M.S. Peculiarities of Muqimi's Work and Its Significance. Central asian journal of literature, philosophy and Culture,2(3), 75-77. 2021.
 - 8.M.M.S. Kokand is Essential in Educational Literature The Place
<https://academicsresearch.ru/index.php/ICERI/article/view/1777-2021>.
- https://iht.uz/download/slides/2kurs/literature/adabiyot/016_mavzu_muqimiy.pdf
- <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968> <https://doi.org/10.33619/2414-2948/41/65>.
- [file:///c:/users/user/downloads/toshpo%ca%bblatova.+barchinoy%20\(1\).pdf](file:///c:/users/user/downloads/toshpo%ca%bblatova.+barchinoy%20(1).pdf)